

Qurilish sohasining rivojlanishida qurilish materiallari sanoatining tutgan o`rni va ahamiyati

QDU, "Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi"
y`onalishi 1-kurs talabasi Xusanov Rovshan
Ilmiy rahbar: Sh.Xolliyev

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo`lgan qurilish sohasida ham katta o`zgarishlar amalga oshirilmoqda. Qurilishda kichik va o`rta korxonalar soni tobora ortmoqda. Buning natijasi o`laroq ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va insonlarning hayotiy sharoitlarini yaxshilashdagi imkoniyatlari kengaya bormoqda.

Umuman olganda, qurilish majmui strategik ahamiyatga ega hisoblanib, quyidagi juda muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradi:

1. Qurilish iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini asosiy fondlarini yangilanishini va o`shirishini ta`minlaydi.

2. Iqtisodiyotni tarkibiy qayta tuzilishini ta`minlaydi.

3. Ustuvor tarmoq va sohalarni qurish, rekonstruksiya qilish orqali makroiqtisodiy nisbatlarni muntazam ravishda takomillashtirib boradi.

4. Qurilish majmui ishlab chiqarishni, madaniy-maishiy tarmoqlarni hudud jihatdan joylanishini yaxshilaydi. Bu o`z navbatida viloyatlar aholosini ish bilan bandlilik darajasini oshiradi.

Mamlakatimiz qurilish sanoati negizini davlat, aksiyadorlik, xususiy, qo`shma va boshqa pudrat qurilish-montaj tashkilotlari, shuningdek, o`z moddiy-texnika va ishlab chiqarish bazasiga, malakali ishchi va mutaxassis kadrlarga ega bo`lgan korxonalar, transport va boshqa yordamchi xo`jaliklar tashkil etmoqda.

Respublikamizda qabul qilingan huquqiy me`yorlarning amalga tatbiq etilishi va qurilish tarmog`ida kichik biznes korxonalarini faolyatini soddalashtirish, ko`rilayotgan chora – tadbirlarning ijobiy natijasini bermoqda.

Tahlillarimiz shuni ko`rsatmoqdaki, qurilish sohasida kichik korxonalarini, qurilish firmalarining soni yildan-yilga ortib bormoqda. Shuni aytish kerakki, qurilish tarmog`ida faoliyat ko`rsatayotgan mikrofirmalar boshqa tarmoqlardagi

mikrofirmalarga nisbatan ko'payish bo'yicha 5-o'rinda, ya'ni qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, ulgurji savdo, sanoatdan so'ng turadi.

Qurilish ishlab chiqarishi yoki kapital qurilish doimiy ravishda bino va har xil maqsadlar uchun qurilmalar yaratmoqda va rekonstruktsiya qilishni ta'minlamoqda. Uning mahsuloti ekspluatatsiyaga tayyor ishlab chiqarish korxonalari, yo'llar, turarjoylar, jamoat binolari va boshqalar hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida qurilish sohasida ham iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi va bu jarayon oxirgi yillarda chuqurlashib bormoqda.

Qurilish industriyasida yig'ma temir-beton konstruksiyalari va detallaridan foydalanilmoqda. Bino va inshootlarning yirik qismlarini, uy poydevorlarini, devor panellari, zinapoyalar va boshqalarni zavod usulida tayyorlaydigan yangi tarmoqlar paydo bo'ldi.

Umuman olgan, qurilish sohasining rivojida qurilish materiallari sanoatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Avvallari bir qator qurilish materiallari chet davlatlardan keltirilgan bo'lsa, hozirgi kunda aksariyat qurilish materiallari o'zimizning xom-ashyolardan yuksan xorij texnologiyalari asosida mahalliy korxonalarimizda tayyorlanmoqda. So'nggi yillarda respublikamizda qurilishning yetakchi texnologiyalari talablariga va xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan zamonaviy qurilish hamda pardozlash materiallarining yangi turlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Masalan, turli gipsokarton plitalari, quruq aralashmalar, zamonaviy tom usti materiallari, issiqlikka chidamli polimer quvurlari, keramika plitkalari, "sendvich" panellari, bazalt tolalari va armatura, issiqlik o'tkazmaydigan materiallar va boshqalar shular jumlasidandir.

Tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda yarim tayyormahsulotlar va xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yuqori texnologiyali hamda zamonaviy ishlab chiqarishlarni ishga tushirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritish evaziga, shu bilan birga,

sohani modernizatsiyalash natijasida 2016 yil I-choragida 2015 yilning shu davriga nisbatan qurilish materiallari sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish 10,9 foizga ortdi.

Mazkur davr mobaynida gipsokarton mahsulotlari ishlab chiqarish 19,8 foizga, sement tayyorlash - 6,8 foizga, qurilish uchun shisha buyumlari - 3,4 foizga, aktivlashtirilgan ohak - 10,2 martaga oshirildi. Shuningdek, boshqa turdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarish ham ko'paydi.

Birja savdosi orqali 1,5 mln tonnadan ziyod sement sotildi. Bu esa, qurilish majmuasi ehtiyojlarini to'liq qondirishga imkon berdi.

Mahalliy xomashyo asosida qurilish materiallari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi doirasida 2,27 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Shuning barobarida, 10 mln AQSH dollari miqdorida mahsulot eksport qilindi, jumladan, qurilish materiallari va mahsulotlarining tabiiy toshdan yasalgan arxitektura buyumlari, aglomeratlardan yasalgan sun'iy plitalar, alyuminiy va PVX profillaridan yasalgan oyna va eshiklar uchun aksessuar va butlovchi qismlar, "sendvich" panellar kabi umumiy qiymati 500 ming dollardan ziyod bo'lgan 11 ta yangi turdagi mahsulot eksport qilindi.

Yuqoridagilarning barchasi respublika qurilish bozorining yanada kengayib, unda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati kun sayin yaxshilanib borayotganidan darak beradi. Bu esa mamlakatimizda yangidan – yangi zamonaviy turar va noturar joylar, ijtimoiy soha obyektlari, yo'llar va ko'priklar deganidir.